

XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA TAHLIL QILISH BOSHQARUV QARORLARI ISHLAB CHIQLISHI VA BUDJETLASHTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li
o'qituvchi(mustaqil tadqiqotchi), “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası
Namangan davlat texnika universiteti
iakbarjon@gmail.com
ORCID: 0009-0004-2630-3840
+998976269232

Annotatsiya: Mazkur maqolada xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va budjetlashtirishning asosi sifatida ko'rib chiqiladi. Budjetlashtirish jarayoni korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali budjetlashtirish orqali korxonada xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy natijalarni aniq bashorat qilish va biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Kalit so'zlar: Budjetlashtirish, xarajatlarni hisobga olish, tahlil qilish, boshqaruv qarorlari, moliyaviy rejalashtirish.

I.KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy resurslarini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda markaziy o'rin tutadi. Budjetlashtirish esa biznesni rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va samarali boshqaruv tizimini yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada xarajatlarni boshqarishning budjetlashtirish jarayonidagi roli va ahamiyati o'rganiladi.

II.MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlarni boshqarish va budjetlashtirish bo'yicha iqtisodiyot fanida turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan biri Ch. T. Horngren va J. Foster tomonidan ilgari surilgan yondashuvdir.¹¹⁰ Ularning asarlarida budjet rejaning miqdoriy ifodalanishi sifatida ko'rib chiqiladi va uning bajarilishini ta'minlashda muvofiqlashtirish va nazorat vositasi sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, budjetlashtirish jarayoni korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish vositasi sifatida talqin etilgan.

Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlarni hisobga olish va ularni tahlil qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. M. Porter¹¹¹, R. Kaplan va D. Norton¹¹² kabi iqtisodchilar xarajatlarni samarali boshqarish va strategik rejalashtirish

¹¹⁰ Horngren C. T., Foster J. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – New Jersey: Prentice Hall, 2000

¹¹¹ Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.

¹¹² Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.

masalalariga alohida e'tibor qaratishgan. Ayniqsa, balanslangan ko'rsatkichlar tizimi (BSC) xarajatlarni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Budjetlashtirishda boshlang'ich nuqtani tanlab olish haqida turli fikrlar mavjud. A. A. Abdug'aniev ushbu masalaga to'xtalib, « budjetlar tuzishni daromad va foydadan emas, balki xarajatlar va mahsulot hajmidan boshlashni tavsiya etamiz»¹¹³, - deb yozgan. Professor M. Вахрушина esa, «operatsion budjetlarni tuzish ketma-ketligi korxonalar faoliyatini cheklovchi omillarga bog'liq bo'ladi. Masalan, korxonada asosiy cheklovchi omil bozor sig'imi bo'lsa, budjetlar tuzishni sotish budjetidan, ishlab chiqarish quvvatlarining yetishmasligi bo'lsa, ishlab chiqarish budjetidan, xomashyo va materiallar tanqisligi bo'lsa, ta'minot budjetidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi»¹¹⁴, deb hisoblaydi.

Mahalliy iqtisodchilar orasida I. Karimov va U. Burxonovlar¹¹⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda budjetlashtirish jarayoni va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri keng yoritilgan. Ularning ishlarida budjet rejalashtirishning nazariy asoslari, tahlil metodlari va amaliy qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

III.METODLAR

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, solishtirma tahlil, statistik usullar va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xarajatlarni boshqarish va budjetlashtirish jarayonining nazariy asoslari va amaliy tatbiqlari tahlil qilindi. Shuningdek, turli iqtisodiy maktablarning yondashuvlari va korxonalaridagi amaliy tajribalar o'rganildi.

IV. TAHLIL VA NATIJALAR

Budjetlashtirishni korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish deb hisoblash ham mumkin. Chunki budjetlashtirishning afzalligi korxonada moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talablarini o'rganishda o'z ifodasini topadi. Budjetlashtirish orqali xarajatlar yo'nalishlari va hajmlari moliyaviy-iqtisodiy resurslar bilan balanslashtiriladi. Shu bilan birga unda asosiy e'tibor mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi. Rivojlangan mamlakatlar boshqaruv hisobida budjetlashtirish orqali rejalashtirish mustahkam o'rin egallagan.

Har qanday korxonada yoki tashkilotning moliyaviy barqarorligi va samaradorligi uning xarajatlarni to'g'ri hisobga olishi va tahlil qilishiga bog'liq. Xarajatlarni aniq

113 Abduganiev A. A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. - Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2003, 275 b.

114 Вахрушина М. А. Теория и практика бухгалтерского управленческого учета. Автореф. докт. дис. на соис. уч. степ. докт. экон.наук. -Москва. 2002.

115 Karimov I., Burxonov U. Budjetlashtirish jarayoni va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

hisobga olish orqali tashkilot o‘zining moliyaviy holatini to‘g‘ri baholay oladi, keraksiz xarajatlarni kamaytiradi va mablag‘larni optimal taqsimlaydi. Boshqaruv qarorlarining to‘g‘ri qabul qilinishi esa aynan xarajatlar tahlilining to‘g‘ri olib borilishiga asoslanadi.

Xarajatlarni hisobga olish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan tashkilotlarda moliyaviy oqimlar shaffof bo‘lib, xarajatlarning qayerga va qanday yo‘naltirilayotganini kuzatish osonlashadi. Bu esa samarali budjetlashtirish imkonini beradi. Budjet rejalashtirish jarayonida xarajatlarni to‘g‘ri tahlil qilish natijasida korxonaga mablag‘larini tejimli sarflashi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va rentabellikni oshirishi mumkin.

Xarajatlarni tahlil qilish jarayonida ularni tasniflash muhim ahamiyatga ega. Xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, bevosita va bilvosita kabi turli kategoriyalarga bo‘linadi. Ushbu tasnif asosida har bir xarajat turi alohida tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholanadi. Masalan, ishlab chiqarish xarajatlarini chuqur tahlil qilish natijasida mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, marketing va reklama xarajatlarini tahlil qilish orqali bozorda samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Boshqaruv qarorlarining samaradorligi ham xarajatlarni tahlil qilish darajasiga bog‘liq. To‘g‘ri tahlil qilingan xarajatlar asosida ishlab chiqilgan boshqaruv qarorlari moliyaviy xavflarni kamaytirish, foydalilik darajasini oshirish va korxonaning raqobatbardoshligini ta‘minlashga yordam beradi. Masalan, keraksiz operatsion xarajatlarni qisqartirish orqali korxonaga resurslarini innovatsiyalar yoki ishlab chiqarish quvvatini oshirishga yo‘naltirishi mumkin.

Budjetlashtirish jarayonida xarajatlar tahlilining o‘rni juda katta. Budjetning to‘g‘ri tuzilishi korxonani moliyaviy intizomga rioya qilishga undaydi va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Xarajatlarni aniq rejalashtirish korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, bu jarayon kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy muammolarni oldindan bashorat qilish va ularga mos choralar ko‘rishga yordam beradi.

Fikrimizcha, budjetlashtirishning quyidagi ijobiy jihatlari mavjud:

- korxonaning asosiy maqsadini ta‘minlashda xizmat qiladigan jarayonlar rejalashtiriladi;
- alohida bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtiriladi;
- korxonaga bo‘linmalari rahbarlarini o‘z vazifalarini samarali amalga oshirishlari uchun axborot bazasi yaratiladi;
- korxonaga xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rioya qilishlari ta‘minlanadi;
- korxonaga alohida bo‘linmalari tomonidan belgilangan rejalarning bajarilish darajasini ob‘ektiv baholash uchun asos mavjud bo‘ladi.

Budjetlashtirishga tayangan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

- korxonaning maqsadlariga erishilishini ta'minlovchi xo'jalik muomalalarini rejalashtirish;
 - barcha darajadagi rahbarlarni o'zlari javobgar markazlar maqsadiga erishishlarida rag'batlantirish;
 - turli xil bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bo'linmalar xodimlarining manfaatlari e'tiborga olinadi;
 - korxonada joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini ta'minlash;
 - javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo'yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o'tash;
 - boshqaruvchi xodimlar malakasini oshirishda ko'maklashish.
- Yuqoridagi ma'lumotlarini umumiy lashtirib 1-jadval holatida keltirishimiz mumkin.

1-jadval

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda xarajatlar tahlilining o'rni¹¹⁶

Bosqichlar	Jarayon	Natijalar va ta'siri
1. Xarajatlarni hisobga olish	- Xarajatlarni aniqlash va tasniflash - Ma'lumotlarni yig'ish va qayd etish	Moliyaviy holat haqida aniq ma'lumot olinadi
2. Xarajatlarni tahlil qilish	- Xarajatlarni kategoriyalarga ajratish - Ishlab chiqarish, marketing, boshqaruv va boshqa xarajatlarni tahlil qilish	Keraksiz xarajatlarni qisqartirish imkoniyati
3. Tahlil natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish	- Xarajatlarni optimallashtirish - Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash - Samarali investitsion qarorlar qabul qilish	Tejamkor va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish
4. Budjetni rejalashtirish	- Xarajat tahliliga asoslangan budjet yaratish - Mablag'larni to'g'ri taqsimlash - Xarajatlarni nazorat qilish	Moliya resurslarini samarali boshqarish va yo'naltirish
5. Budjet ijrosini nazorat qilish	- Xarajatlar va daromadlarni doimiy monitoring qilish - Reja va amaliy natijalarni solishtirish	Reja va natijalar mosligini ta'minlash, samaradorlikni oshirish

Budjetlashtirish jarayonining mazmuni quyidagi vazifalar ijro etilishiga qaratiladi¹¹⁷.

Rejalashtirish. Ko'pchilik hollarda, boshqaruv qarorlari bo'yicha rejalari ishlab chiqarish dasturini tayyorlash jarayonida shakllantiriladi va budjetlarni tuzishda mazmunan aniqlashtiriladi.

¹¹⁶ Muallif ishlanmasi

¹¹⁷ B.Y.Maxsudov. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. -T.: «Fan va texnologiya», 2017,360 bet.

Muvofiqlashtirish. Korxonaning har bir javobgarlik markazi boshqa javobgarlik markazlari ish jarayoniga ta'sir etadi va ularning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Budjetlarni tayyorlashda alohida faoliyat turlari o'zaro muvofiqlashtiriladi, bunda barcha bo'linmalar kelishuv asosida, korxonada umumiy maqsadidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatadi. Bu holatda ishlab chiqarish rejasini marketing bo'limi rejasini bilan muvofiqlashtirish, jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini rejalashtirilgan sotish hajmi va tayyor mahsulotlar qoldig'i bilan taqqoslash asosiy talablardan hisoblanadi. Xomashyo va materiallarni sotib olishni rejalashtirishda ishlab chiqarish budjetida ifodalangan mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan talab tahlil qilinadi. Ishlab chiqilgan rejalar barcha qatnashchilar ularning shartlari bilan to'liq tanishib olinguncha amalga oshirilmaligi lozim. Rejalar quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

- qancha mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) ishlab chiqariladi;
- ishlab chiqarishda qatnashadigan xodimlar, foydalaniladigan usullar va asbob-uskunalar to'g'risida ma'lumotlar;
- qancha xomashyo va materiallar sotib olinadi;
- sotish bahosi qanday belgilanadi, kelgusida qanday cheklov-larga rioya qilinadi va h. k.

Ushbu ma'lumotlar reklama, texnik xizmat ko'rsatish, ma'muriy va mehnatga haq to'lash xarajatlarini rejalashtirish hamda mahsulot sifatini samarali boshqarishga imkon beradi.

Rag'batlantirish. Budjetlarni tuzish jarayoni javobgarlik markazlari rahbarlari maqsadini amalga oshirishda muhim rag'batlantirish vositasi bo'lishi mumkin. Budjetlarning rag'batlantirish roli ko'proq menejrlarni o'z bo'linmalarida budjetlarni tuzish jarayonida faol qatnashishlarida namoyon bo'ladi.

Nazorat. Puxta tayyorlangan budjetlar haqiqiy erishilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi, shuningdek, ular budjetlarni tuzish jarayonida kutilgan barcha o'zgarishlar natijalarini baholashni o'z ichiga oladi. Hozirgacha korxonalar amaliyotida joriy natijalar o'tgan yil natijalari bilan taqqoslanib kelingan. Ko'pgina korxonalar ayni paytda ham taqqoslashning asosiy vositasi sifatida ushbu usuldan foydalanmoqda. Ammo, bu tarixiy usul joriy yil uchun rejalashtirilgan rivojlantirish dasturidagi o'zgarishlarni aks ettirmaydi. Haqiqiy ko'rsatkichlarni budjet ma'lumotlari bilan taqqoslash boshqaruv faoliyatida asosiy e'tiborni qaysi jihatlarga qaratish zarurligini belgilab beradi.

Haqiqiy erishilgan natijalar bilan budjet ma'lumotlari o'rtasidagi chetlanishlar tahlili quyidagi afzalliklarga ega:

- korxonada faoliyatidagi eng avval hal qilinishi lozim bo'lgan muammoli jihatlarni aniqlashga ko'maklashadi;
- budjetlarni tuzish jarayonida o'rganilmagan yangi imkoniyat-larni yuzaga chiqarishga yordamlashadi
- bosh budjetdagi mavjud nomuvofiqliklarni ochib beradi

Baholash. Har oyda budjetlardagi chetlanishlarni aniqlash butun hisobot davri uchun nazorat maqsadlariga xizmat qiladi. Hisobot davri haqiqiy natijalari bilan budjet ma'lumotlarini taqqoslash yil oxirida javobgarlik markazlari va ular rahbarlari faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni baholash imkonini beradi.

Malakani oshirish. Budjetlar menejerlarning malakasini oshirishda ham ijobiy samara beradi ya'ni menejerlar budjetlarni tuzishda o'z bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarga, shuningdek, javobgarlik markazlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bu esa korxonalar javobgarlik markazlariga ma'sul shaxslarni tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni hisobga olish va ularni tahlil qilish natijasida korxonalar samarali budjetlashtirish tizimini joriy etishlari mumkin. Bu esa quyidagi natijalarga olib keladi:

- Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash;
- Xarajatlar dinamikasini nazorat qilish;
- Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniqlik va ishonchlilik;
- Korxonalar rentabelligini oshirish.
- Xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va tahlil qilish korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.
- Boshqaruv qarorlari samaradorligi oshadi, chunki ular aniq va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan bo'ladi.
- Budjetlashtirish jarayonining sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi, bu esa korxonalar mablag'larini samarali taqsimlashga yordam beradi.
- Tejamkorlik va operatsion samaradorlik oshadi, chunki xarajatlar optimallashtiriladi va keraksiz sarf-xarajatlar kamaytiriladi.
- Moliyaviy xavflar minimallashtiriladi, bu esa korxonalar foydaliligini oshirishga va barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish nafaqat moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, balki samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va budjetni optimallashtirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada korxonalar o'z faoliyatini yanada barqaror, samarali va foydali shaklda tashkil etishi mumkin.

V.XULOSA

Ishlab chiqarish xarajatlarning hisobini yuritish va tannarxni kalkulyatsiyalash korxonada xarajatlarni boshqarish uchun zarur axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi. Tayyor mahsulot tannarxini hisoblab chiqish, asosiy yo'nalishlarda moliyaviy natijalarni aniqlash korxonalar va alohida bo'linmalar bo'yicha, mansabdor shaxslar bo'yicha natijalarni nazorat qilish, xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha qisqa va uzoq muddatli boshqaruv qarorlari qabul qilish imkonini beradi.

Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish budjetlashtirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Samarali budjetlashtirish orqali korxonalar o'z moliyaviy faoliyatini

yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kelgusida ushbu yo'nalishda yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud bo'lib, ularning natijalari amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish har qanday korxonada yoki tashkilotning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim omillardan biridir. To'g'ri hisob-kitob va chuqur tahlil asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga, resurslardan samarali foydalanishga va budjetni aniq rejalashtirishga yordam beradi.

Xarajatlar tahlili orqali korxonada mablag'larining qaysi yo'nalishga sarflanayotganini aniqlash, keraksiz xarajatlarni qisqartirish va foydali investitsion qarorlar qabul qilish mumkin. Bu esa uzoq muddatli strategik rejalashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xarajatlarni boshqarish jarayoni korxonaning daromadlilikini oshirish, tejamkorlikni ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, budjetni shakllantirishda xarajatlarni tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Budjetlashtirish jarayonida aniq ma'lumotlarga asoslangan holda xarajatlarni taqsimlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilash mumkin bo'ladi. Bu esa boshqaruv jarayonlarini optimallashtirib, tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish boshqaruv qarorlarini shakllantirish hamda budjetni to'g'ri rejalashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu jarayonlar yaxshi tashkil etilgan taqdirda, korxonalar raqobatbardosh bo'lishi, moliyaviy barqarorlikka erishishi va kelajak rejalari uchun aniq strategiyalar ishlab chiqishi mumkin.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Horngren C. T., Foster J. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – New Jersey: Prentice Hall, 2000
2. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
3. Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
4. Abduganiev A. A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. - Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2003, 275 b.
5. Бахрушина М. А. Теория и практика бухгалтерского управленческого учета. Автореф. докт. дис. на соис. уч. степ. докт. экон.наук. -Москва. 2002.
6. Karimov I., Burxonov U. Budjetlashtirish jarayoni va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. B.Y.Maxsudov. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish uslubiyo'tini takomillashtirish. -T.: «Fan va texnologiya», 2017,360 bet.
8. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN*

COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.

9. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2849-2859.

10. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.

11. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLİYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.

12. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLİYAVIY TA’MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142-146.

13. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). MOLİYAVIY AKTIVLAR HISOBINING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 62(3), 146-152.